gungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ushbu qo‘lyozma juda ixcham, bezaklarsiz ko‘chirilgan. Kitobning oxirida “in kitob ro‘zi dushanba tamom” bilan tugallangan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Bizga ma’lum bo‘lgan “Miftoh ul-adl” va “Gulzor” asarlarining 7 ta qo‘lyozma nusxalari asosida asarning tanqidiy matnini yaratish mumkin. 1962-yili “Miftoh ul-adl” va “Gulzor”dan parchalar alohida chop etildi (V.Zohidov va S.G‘aniyevalar nashrga tayyorlagan) [2;56-b.]. Xojaning har ikkala asari yuzasidan to‘liq nashr ishlari bugungu kungacha amalga oshirilmagan.

M.Mirzaahmedova esa Xoja hayoti va ijodini o‘rganib, uning “Miftoh ul-adl” va “Gulzor” asarlarining o‘zimizdagi 7ta, SSSR Fanlar akademiyasi Osiyo xalqlari institutining Leningrad bo‘limi qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan V-2188 inventar raqamli qo‘lyozmadan va P.Shamsiyevning shaxsiy arxivida saq-langan qo‘lyozmadan ham foydalanganligini ta’kidlaydi va bu qo‘lyozmalarning barchasi XVIII, XIX, XX asr mahsuli ekanligini qayd etadi [3;36–44-b.].

Shunday qilib, Xoja asarlarining qo‘lyozma nusxalarining biri haqidagi ma’lumotlarimiz, uning o‘z davrida va keyingi davrlarda nasriy hikoyat ustasi sifatida shuhrat qozonganligi hamda ommaning e’ti-borida bo‘lganligidan dalolat beradi. Bunga uning asarlari turli davrlarda kotiblar tomonidan qayta-qayta ko‘-chirilgani yorqin misoldir. Bu qo‘lyozma nusxalarni qiyosiy-ilmiy tadqiq etish galdagi vazifamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). “Miftoh ul-adl”ning qo‘lyozma nusxasi. Inv № Д-4656, 210-varaq.

(2). Пошшохўжа. “Мифтоҳ ул-адл” ва “Гулзор”дан. Т., Ўздавнашр, 1962, 56-бет.

(3). Мирзааҳмедова М. Хожа. Т., “Фан”, 1975, 130-бет.

(4). Мирзааҳмедова М. Пошшохожа ва унинг “Мифтоҳ ул-адл” ҳамда “Гулзор” асарлари. Филология фанлари кандидати илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация, Тошкент, 1966, 218-бет.

(5). Тоҳиржонов А. Хожанинг янги топилган асари. “Ўзбек тили ва адабиёти”, 1975, 3-сон, 70–73-бет-лар.

(6). Воҳидов З. Ўзбек адабиёти тарихидан. Т., “Ўзадабийнашр”, 1961. 265-бет.

(7). Doç. Dr. Tanju Oral Seyhan. Pādişāh Ĥōca külliyâtı: Miftāhü’l-adl. Kesit yayinlari. Istanbul, 2012, s. 219.

(8). Иброҳимов А. Хожа ҳаёти ва ижоди ҳақида баъзи маълумотлар.“Ўзбек тили ва адабиёти”, 4-сон, Т., 1965.

(9). Ғозиев С. Подшохожа қарашларида ижтимоий ахлоқ масаласи. Илмий рисола. Т., А.Қодирий но-мидаги “Халқ мероси” нашриёти, 1999, 116-бет.

Muxammedova Xulkar Eliboyevna (filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent, O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti; xulkarmuxammedova@gmail.com)

YOHANNA SHPIRI IJODIDA BOLALAR OBRAZI

Annotatsiya. *Bolalar adabiyoti namunalarini bolalar dunyosi misolida ochib berishda olmon adiba-si Yohanna Shpiri ijodini misol qiib keltirish mumkin. Yohanna Shpiri shveysariyalik adiba bolalar obraz-larini asar kontekstida ochib berar ekan ularning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlarni ham ko‘rsatib bergan.*

Kalit so‘zlar: *bolalar, adabiyot, asar, obraz, sujet, tabiat, adiba.*

Мухаммедова Хулкар (доктор филологических наук (DSc) доцент, Узбекистанский государственный университет мировых языков; xulkarmuxammedova@gmail.com)

ОБРАЗ ДЕТЕЙ В ТВОРЧЕСТВЕ ЙОХАННЫ СПИРИ

Аннотация. *Раскрывая образы детской литературы на примере мира детей, можно привес-ти творчество немецкой писательницы Йоханны Спири. Швейцарская писательница Йоханна Спи-ри раскрывает образы детей в контексте своего произведения, показывая также их особенности.*

Ключевые слова: *дети, литература, роман, образ, сюжет, природа, писательница.*

Mukhammedova Khulkar (Doctor of philology (DSc) associate professor Uzbekistan state world Languages University; xulkarmuxammedova@gmail.com)

CHILDREN CHARACTER IN JOHANNA SPYRI’S NOVELS

Annotation. *Revealing the images of children’s literature using the world of children as an example, we can cite the work of the Swiss writer Johanna Spyri. Swiss writer Johanna Spyri reveals the images of children in the context of her work, also showing their characteristics.*

Key words: *children, literature, novel, character, plot, nature, female writer.*

Kirish. Bolalar adabiyotiga xos bo‘lgan asar kichik yoshdagi kitobxonlarning yosh xususiyatlariga, ularning saviyasiga xos, yoqin obrazlarga hamda soda va qiziqarli tarzda ifoda etilishi talab etiladi. Bunday

xususiyatni o‘zida aks ettirgan badiiy asargina bolalarga kuchli ta’sir ko‘rsatish bilan birga, ularni to‘g‘ri tarbiya qila olish kuchiga ham egadir.

Bolalar dunyosini ochib berishda ularning o‘ziga xos yosh xususiyatlarini inobatga olish, qolaversa, muhim xarakter kasb etuvchi voqea, hodisalarni badiiy obrazlar orqali bolalar nutqiga xos tilda ifoda etishning uddasidan hamma yozuvchi ham chiqavermaydi. O‘zbek bolalar adabiyotining fidoyi olimlaridan bo‘lgan Rahmatulla Barakayev o‘zbek bolalar adabiyoti tarixi, hozirgi o‘zbek bolalar adabiyotining taraqqiyot tamoyillarini ochib berishda tarjima san’ati bilan chambarchars bog‘likligini ko‘rsatib o‘tadi [2;26-b.]. Jahon adabiyotining klassik asarlar turkumida bolalarga xos bir qancha asarlarni ko‘rish mumkindir. Bolalar adabiyoti rivojiga hissa qo‘shgan shveytsariyalik adiba Yohanna Shpiri ijodi bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bolalar adabiyotining yuksak namunasi bo‘la olgan Yohanna Shpiri ijodi bugungi kunda ham ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilmoqda. Xaydininng tinib-tinchimasligi buvi va bobosiga qayg‘urishi va Klarani yurishga undashi juda teran ifoda etiladi. Hayotga zukko nigoh tashlagan Xaydi romanda asosiy obraz sifatida gavdalantirilgan. Tadqiqotchi Y.Pratikto adiba Yohanna Shpiri mo‘jizali makonda bolalar obrazi orqali mo‘jizani ko‘rsata olganligini ta’kidlaydi. Tadqiqotchi Y.Pratikto fikriga ko‘ra, bolalar dunyosida ro‘y beruvchi voqea-hodisalarda o‘ziga xos ishonch va do‘stlik tuyg‘usi mujassam bo‘lib adiba tog‘dagi tabiat mo‘jizasini mana shu obrazlar orqali teran ifoda qilgan [5;38-b.]. Muallif roman chizig‘ida barcha obrazlarni Xaydi birlashtirib turishini namoyon etgan. Amerikalik tadqiqotchi V.Kerolin esa Shpiri ijodining gultoji bu Xaydi, Xaydi obrazida kattalar ko‘ra olmaydigan jixatlar mavjudligiga e’tibor qaratadi [1;112-b.].

Romanda asosiy obrazlarning mohiyatiga ko‘ra, insonni tog‘ri tarbiya qila olish xususiyati keng ochib berilgan. Adabiyotshunos M.Klarer “Adabiyoshunoslikka kirish” asarida didaktik xususiyatni asarda jonli ifoda etishda tasvirlanayotgan obrazlarning ichki va tashqi dunyosini hisobga olish zarurdir. Bolalar adabiyotining klassik asari sifatida Yohanna Shpirining “Xaydi” romanida didaktikaga kuchli e’tibor qaratilgan [4;68-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur asarni badiiy tahlil asosida ochib berishimizda unda xilma-xil vazifalar ko‘zga tashlanadi. Chunki bu tahlildan kuzatiladigan maqsad asarning xususiyatlarini o‘rganishdir. Badiiy matnda kishilarning munosabatlar doirasida bir-biri bilan bog‘langan kishilar hayotining ma’lum davridagi voqealari tasvirlanadi. Asardagi voqealar XIX asr Shveysariya qishoq, ya’ni Alp tog‘lari hamda Frankfurt shaharidagi zodagon oilada sodir bo‘ladi. Bu voqealarda davrning ijtimoiy, madaniy va axloqiy hayoti o‘z aksini topadi. Badiiy matn tahlilida tasvirlangan voqelik va shu voqelikka adiba Yohanna Shpirining munosabati aniqlanadi. Asar kontekstida obrazlar asarning umumiy mazmuni bilan bog‘liq holda namoyon bo‘lishi kuzatiladi. Asar sujeti va kompozitsiyasida didaktik xususiyat ham ko‘zga tashlanadi. Asarning o‘rgangan Ch.O.Brein, C.O.Dea, F.Hale, R.Frohlich, J.Winckler, R.Schindler, H.Zeller kabi tadqiqotchilar o‘z tadqiqotlarida Yohanna Shpiri ijodini davr konteksti hamda biografik metod asosida ochib berishga harakat qiladilar.

Tahlil va natijalar. Yohanna Shpiri minglab kichik kitobxonlar bilan birga katta yoshdagi kitobxonlar e’tiborini ham o‘ziga torta oldi. Uning qalamiga mansub “Xaydi – Heidis, Heidis Lehr– und Wanderjahre (Haydining o‘quv yillari)” asari adibaga bir olam shuhrat olib keldi. Dastlab, olmon mamlakati, keyinchalik, inglizzabon hamda Osiyo mamlakatlari adabiyotiga kirib kelgan “Haydi” romani, haqiqatda, bolalar adabiyotining yuksak namunasi bo‘la oldi. 1880–1881-yillarda yaratilgan “Haydi” romani o‘zbek tiliga Yo‘ldosh Parda tomonidan tarjima qilingan.

Roman Frankfurt hamda Alp tog‘larida sodir bo‘lgan voqealarni o‘zida aks ettiradi. Beg‘ubor bolalar dunyosini adiba Piter, Klara va Haydi obrazlari orqali ochib beradi. Haydining bobosi Alp to‘g‘a tog‘ etagida yashar va qishloq aholisiga uncha ham qo‘shilavermas kamgap inson edi. Piter ta’rificha, Alp to‘g‘a qattiqqo‘l va biroz odamovi. Shunga qaramay, Haydi bobosi bilan juda yaxshi munosabatda bo‘lishi Piterni ajablantirardi. Piterning o‘zi ham maktabga borishiga qaramay bolalar bilan o‘ynab ketavermasdi. U kattalarga xos ish yuritardi. Bu uning cho‘ponlik qilishida deb tushunardi Xaydi. Maktabdan bo‘sh vaqtlarida Piter cho‘ponlik qilardi. U Alp tog‘aning echkilarini tog‘ etaklarida o‘tlatardi. Romanda ta’rif etilgan Alp tog‘larining fusunkorligini adiba juda mahorat bilan ifoda etadi. Tabiat go‘zalligini ifoda etishda turli tog‘ o‘simliklarining nomlarini hamda buloqlar tasviriga e’tibor qaratadi. Mana shunday maskanda ulg‘aygan Piter va Xaydi uchun, albatta, Frankfurtday zamonaviy shahar muhiti begonadir. Klara badavlat zodagonning kasalmand qizidir. Xaydi bilan do‘stlshar ekan, unga shaharning ko‘plab joylarini ko‘rsatar va shahar odamlarining yashash tarzini ham tushuntirardi. Dastlab, Xaydi uchun shahr muhiti bog‘iq tuyuldi. Bunday diqqinafas shahar Alp tog‘larining go‘zalligi oldida Xaydi uchun hech narsa emas. U Klaraga Alp tog‘lari-

ning go‘zalligini tabiatning maftunkor ko‘rinihini tasvirlar ekan, Klara unga mahliyo bo‘lardi. Mana shunday suhbatlar natijasida Klara Alp tog‘lariga borishga qaror qiladi. Uning bu qarorini janob hakim hamda buvisi qo‘llab-quvvatlaydi.

Asardagi e’tirof etish mumkin bo‘lgan ko‘rinishlardan biri bu qishloq maktabi hamda Piterning buvisi bilan bog‘liq voqealardir. Frankfurtdan o‘qishni o‘rganib kelgan Xaydi Piterning ham o‘qishni o‘rganishini istardi. Saba Piterning buvisida qadimiy xalq qo‘shiqlari jamlangan kitob bo‘lib, Xaydi buvini ko‘rgani borganida xalq qo‘shiqlaridan o‘qib berardi. Ko‘zlari ojiz buvi esa bundan juda xursand bo‘lardi. Buvini ana shunday xursand qilish Piterning ham qo‘lidan kelishini Xaydi yaxshi tushunardi. Maktabda tushlik uchun ajratilgan vaqtlarda Xaydi Piterga birma-bir hijjalab o‘qishni o‘rgata boshladi. Adiba buni quyidagicha asarda ifoda etadi:

–Endi sen o‘qishni o‘rganib olishing kerak.

–O‘rganyapman-ku, – javob qildi Piter.

–Yo‘q, sen sal boshqacharoq o‘rganishing kerak, – dedi Xaydi shoshilib, – ya’ni o‘rganib olganlaringni amalda qo‘llay olishing kerak.

–Yo‘q, bu qo‘limdan kelmaydi. – dedi cho‘rt kesib Piter.

–Frankfurtdagi buvi ham Piterning bo‘lmag‘ur gaplariga ishonmagin deb tayinlaganlar, axir bu gapinga hech kim ishonmaydi. Piter bu xabardan hayron bo‘lib qoldi. Frankfurtdagi buvi Xaydiga nega bunaqa dedi ekan-a.

–Senga o‘qishni o‘zim o‘rgataman va buning yo‘llarini ham o‘ylab qo‘yganman. Sen o‘qishni o‘rganib olishing kerak, so‘ngra har kuni kechqurun buvimga bittadan qo‘shiq o‘qib berasan.

–Yo‘q, to‘g‘ri kelmaydi, men qo‘shiq o‘qiy olmayman, – g‘o‘ldiradi Piter [3;26-b.].

Bolalar dunyosidagi murakkab ko‘rinishlaridan biri sifatida adiba aynan ta’lim masalasiga e’tibor qaratadi. Oddiy qishloq maktabidagi darslar jarayoni va Piterning o‘qishni yaxshi o‘zlashtira olmayotgani uning so‘zlaridan ham ko‘rinib turadi. Xaydi unga hijjalab o‘qishni o‘rgatar ekan, bunga astoydil kirishadi. Axir Piter buvisini xursand qilishi kerak. Bu esa uning o‘qishni o‘rganib olishi va buvisiga qo‘shiqlar o‘qib berishida namoyon bo‘ladi. Piterning buvisi keksayib qolgan, uni hamma narsa ham xursand qilavermaydi. Xaydi shuning uchun ham bunga qattiq kirishadi.

Alp tog‘lariga kelgan Klara Xaydi aytganidek, xayratga tushadi. U so‘lim tabiat og‘ushida yashayotgan Xaydiga xavas qiladi. Ikki qizaloqning tog‘dagi Alp tog‘aning uyida uchrashishi biram zavq bag‘ishlaydi. Klara yana tezda Frankfurtga qaytib ketishni istamaydi va buvisiga bu haqda aytadi. Alp tog‘larida qolgan Klara Xaydi va Piter bilan birga sayrga chiqadi. Uni Xaydi va Piter tepalikka olib chiqishga urinishadi. Uni yurishga majbur qilish va bunga undash, qolaversa, Klarada ham yurishga kuchli intilish paydo bo‘ladi. Juda ko‘p urinishlardan so‘ng Klaraning yurib ketishi bolalar bilan birga kattalarda ham hayrat uyg‘otadi. Romanda tasvirlangan do‘stlik, tog‘ muhiti bolalar obrazi bilan uyg‘un tarzda ifoda etiladi.

Xulosa. “Xaydi” romani, shubhasiz, bolalar adabiyotining klassik asari sifatida jahon adabiyotida keng e’tirof etildi. Bugungi kungacha roman ko‘plab kitobxonlar tomonidan o‘rganilayotganligi ko‘plab yangi tadqiqotlarga zamin bo‘la olishini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Caroline W. Changing Family Values. London, “Routledge”. 1999, p. 112.

(2). Eshonqulov J. Bolalar adabiyotining zukko bilimdoni. O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, Toshkent, 2024, 26-bet.

(3). Yohanna Sh. Xaydi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1991, 43-bet.

(4). Klarer M. An introduction to Literary Studies. New York, Routledge, 2010, p. 68.

(5). Pratikto Y. Nature versus Materialistic world in Johanna Spyri’s Heidi. Surabaya. Universitas Airlangga Press, 2006, p. 38.